


VIII. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhimi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning turlichi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

(2024- yil yanvar-dekabr)



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste‘mol xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar–dekabr holatiga)


	mlrd so'm	O'sish surati,%	Jamiga nisbatan, %
Xizmatlar-jami	55 200,7	100,0	112,3
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2 039,2	3,7	113,0
moliyaviy xizmatlar	7 170,3	13,1	126,7
transport xizmatlari	7 205,6	13,0	109,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	6 676,5	12,1	108,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	18 425,2	33,4	110,3
savdo xizmatlari	11 091,7	20,1	112,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	877,2	1,6	113,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 702,4	3,1	107,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	997,9	1,8	100,2
ijara xizmatlari	693,5	1,2	106,6
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 202,8	2,2	111,3
shaxsiy xizmatlar	1 822,9	3,3	110,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	272,3	0,5	96,6
boshqa xizmatlar	1 699,7	3,0	108,8

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni yashash va ovqatlanish xizmatlari (33,4 %), savdo xizmatlari (20,1 %), moliyaviy xizmatlar (13,1 %) tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,5 %), ijara xizmatlari (1,2 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (1,6 %) tashkil etgan.


2024- yilning yanvar-dekabr holatiga xizmatlar tarkibi

(jamiga nisbatan %da, katta ulushga ega bo'lganlar)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulush yashash va ovqatlanish xizmatlari (jami xizmatlarning 33,4 %), savdo xizmatlar (20,1 %), moliyaviy xizmatlari (13,1 %), transport xizmatlari (13,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd so'm




Joriy yilning yanvar - dekabr oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlari 11 091,7 mlrd so'm, moliyaviy xizmatlar 7 170,3 mlrd so'm, transport xizmatlari 7 205,6 mlrd so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 2 039,2 mlrd so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



2024-yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 18 425,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 352,0 mlrd so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 18 073,3 mlrd so'mni tashkil etgan.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida transport bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2024-yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 7 205,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 6 678,0 mlrd so'mni, jami transport xizmatlarining 92,7 %ini tashkil etadi.

Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish


(2024- yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd so‘m	2023- yil yanvar-dekabr holatiga nisbatan %da	jami xizmatlar hajmiga nisbatan %da	ming so‘m	2023-yil yanvar-dekabr holatiga nisbatan %da
Farg‘ona viloyati	55 200,7	112,3	100,0	13 453,4	110,0
<i>shaharlar:</i>					
Farg‘ona	9 789,3	115,8	17,7	30 111,7	113,3
Qo‘qon	5 345,2	115,0	9,7	17 170,6	112,8
Quvasoy	794,3	113,8	1,4	7 772,5	111,4
Marg‘ilon	2 592,8	115,0	4,7	10 140,0	113,1
<i>tumanlar:</i>					
Oltiariq	1 388,3	113,0	2,5	6 017,8	110,7
Qo‘shtepa	1 053,5	113,6	1,9	5 000,2	110,7
Bag‘dod	947,3	113,0	1,7	4 020,7	110,6
Buvayda	1 264,4	114,9	2,3	5 057,6	112,4
Beshariq	980,6	113,5	1,8	4 002,4	111,5
Quva	1 064,0	113,2	1,9	3 824,6	111,1
Uchko‘prik	1 143,9	114,1	2,1	4 684,1	111,5
Rishton	974,9	113,5	1,8	4 449,7	111,2
So‘x	487,3	112,1	0,9	5 733,2	109,4
Toshloq	1 108,3	113,7	2,0	5 044,4	111,3
O‘zbekiston	940,2	112,8	1,7	3 943,7	110,8
Farg‘ona	1 108,7	113,6	2,0	4 956,2	111,3
Dang‘ara	922,0	113,9	1,7	5 147,8	111,3
Furqat	726,6	112,3	1,3	5 658,8	109,9
Yozyovon	604,7	112,7	1,1	4 997,6	110,4
Taqsimlanmagan hajm	21 964,4	113,7	39,8	x	x

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati Farg‘ona shahriga (115,8 %) va Qo‘qon shahriga (115,0 %) to‘g‘ri keldi. Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushlari Taqsimlanmagan hajm (39,8 %), Farg‘ona shahri (17,7 %), Qo‘qon shahri (9,7 %), Marg‘ilon shahri (4,7 %) va Oltiariq (2,5 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So‘x (0,9 %), Yozyovon (1,1 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.


2024- yilning yanvar-dekabr holatiga xizmatlar sohasida ulushi katta bo'lgan hududlar

(jamiga nisbatan %da)



2024-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13 453,4 ming so'mga teng bo'ldi. Uning o'sish sur'ati esa o'tgan yilga nisbatan 110,0 %ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eng katta xizmatlar hajmi Farg'ona (30 111,7 ming so'm), Qo'qon (17 170,6 ming so'm) va Marg'ilon (10 140,0 ming so'm) shaharlarida qayd etildi. Shuningdek, Quvasoy shahri (7 772,5 ming so'm), Oltiariq (6 017,8 ming so'm) va Buvayda (5 057,6 ming so'm) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo'ldi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Quva tumanida (3 824,6 ming so'm) kuzatildi, o'sish sur'ati 111,1 %ni tashkil etdi.